

1.2.4.1.

**O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida  
2024-yilning yanvar-dekabr oylari uchun  
UMUMIY HISOBOT**

**I. O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amaldagi qonunchilikdagi topshiriqlarni bajarilganligi to‘g‘risida umumiy axborot**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qarori ijrosi ta‘minlash maqsadida qaror ilovasi bilan tasdiqlangan 29 ta indikator bo‘yicha Agentlik markaziy apparatda hamda uning tizim tashkilotlari kesimida indikatorlari ijrosi ta‘minlanib hujjatlashtirish ishlari olib borilmoqda.

**II. Siyosat va tartib-taomillar**

Agentlik direktorining 2023-yil 10-maydagi 8-sonli “Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” ni tasdiqlash haqida buyruk qabul qilingan.

Shuningdek, Agentlik va uning tizim tashkilotlari kesimida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga taalluqli bo‘lgan **15 ta** ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi:

**III. Xavf-xatarlarni baholash**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-martdagi 114-son qarori bilan Agentlikka yuklangan vazifalarni bajarish uchun amalga oshiriladigan **109 ta** funksiyalar korrupsiyaviy xavf-xatarlari taxlil qilinib, shundan, 4-tasi yuqori, 5-tasi o‘rta va 100-ta past funksiyalarga ajratib olindi.

**IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar**

**Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish**

Agentlik va uning tizim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatuvchi jami 46 ta xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyasi to‘ldirildi.

Monitoring natijalariga ko‘ra agentlik va uning tizim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatuvchi **46 nafar** xodimda manfaatlar to‘qnashuvi aniqlangan. Shundan barchasi tartibga solindi, 24 ta ehtimoliy va 22 tasi real. Ushbu real va ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rildi.

**Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Tashkilot shartnomalariga kiritish**

Agentlik va uning tizim tashkilotlaridagi mexnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlar kiritilgan va ular bilan barcha xodimlar tomonidan tanishilgan.

### **Kontragentlarni tekshirish**

Xisobot davrida jami **1789 ta** (*shundan Agentlik 83 ta, "O'zbekiston Akkreditatsiya Markazi" 108 ta, "O'zMMI" 153 ta, "UzTest" 1283 ta, Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi 46 ta va "Standartlar instituti" 116 ta*) shartnomalar bo'yicha xaridlar elektron do'kon, tender orqali hamda yagona etkazib beruvchilar bilan, to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomalar orqali amalga oshirilmoqda. Kontragentlar doimiy ravishda tekshirib borilmoqda..

### **Ishga nomzodlarni tekshirish**

Agentlik va uning tizim tashkilotlariga **204 nafar** (*shundan, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi 31 nafar, "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" DM 9 nafar, "O'zbekiston milliy metrologiya instituti" DM 17 nafar, O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DM 106 nafar, Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi 23 nafar va Standartlar instituti 18 nafar*) nomzodlar o'rganilib, ishga qabul qilindi.

### **V. Ta'lim va kommunikatsiya**

Agentlik va uning tizim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatuvchi **1455 nafar** xodimlarga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 22 marotaba onlayn va offlayn seminar treninglar o'tkazildi.

Shuningdek, Agentlik va uning tizim tashkilotlari xodimlarining huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-210 qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan **445 nafar** xodimlar O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasida o'qitish va malakasini oshirish borasida o'quv-kurslari tashkillashtirildi va sertifikatlar olindi.

Agentlik va uning tizim tashkilotlari xodimlarini huquqiy ong va madaniyatini yuksaltirish borasida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish yo'nalishida bukletlar, huquqiy targ'ibot materiallari tayyorlanib, rasmiy ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali xodimlar va mutaxassislar uchun joylashtirib borilmoqda.

Jumladan, Agentlik va uning tizim tashkilotlari korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida **58 marotaba** (*shundan 40 marotaba ijtimoiy tarmoqlarda, 11 marotaba televideniya, 7 marotaba radio*) targ'ibot-tashviqot tadbirlari tashkil etildi.

2024-yil 25-noyabr kuni Agentlik tomonidan 9-dekabr-"Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni" munosabati bilan "Ochiq eshiklar" kuni tashkillashtirilgan. Tadbirga jamoatchilik vakillari, tadbirkorlar va tizim tashkilot xodimlari ishtirok etib, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumot berib borildi.

Shuningdek, "Korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurashish" mavzusidagi Respublika miqyosidagi videoroliklar tanlovi o'tkazildi va g'oliblari aniqlandi. G'oliblarga esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar

## **VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar**

O'zbekistan texnik jihatdan tartibga solish agentligiga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar kelib tushmadi.

## **VII. Monitoring va nazorat**

Agentlikning korrupsiyaga qarshi ichki huquqiy-normativ hujjatlari va tartib-taomillariga rioya qilinishi, ularni agentlik faoliyatini korrupsiyaga qarshi qabul qilingan talablarga muvofiqligini tekshirish, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korrupsiyaviy xavf-xatarlarini kamaytirishga qaratilgan boshqa tartib-taomillarining bajarilmaganligini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish maqsadida monitoring va nazorat qilish tadbirlari o'tkazildi. O'tkazilgan tadbirlar natijasida **18 ta** holatlar aniqlandi

Bundan tashqari, baholash guruhi tarkibida kuzatuvchi sifatida agentlik va tizim tashkilotlarning muvofiqlikni baholash jarayonini o'tkazish bo'yicha **8 marotaba** joylarga chiqib o'rganildi

Agentlik va uning tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini monitoringini o'tkazishda bir qancha tadbirlar o'tkazildi. Bulardan, Agentlik va uning tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining aktualigi, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning etariligi va ularning samaradorligi, korrupsiyaga qarshi kurashish va kompliens nazorati bo'limlari faoliyatining samaradorligi, OAVlarda foydalanuvchilar tomonidan qoldirilayotgan izohlar, xodimlarni korrupsiyaga qarshi asosiy tartib taomillardan xabardorligi yuzasidan va yana bir qancha tadbirlar o'tkazilib faoliyat yuzasidan tavsiyalar va aniq chora-tadbirlar belgilab berildi.


## **VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari**

Aniqlangan **18 ta** (shundan asosan "Milliy metrologiya instituti" DMning markaziy va Navoiy filiallari hamda "UzTest" DMning markaziy, shuningdek QR, Andijon, Farg'ona, Navoiy, Sirdaryo, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari hududiy sertifikatsiyalash laboratoriyalari) holatlar bo'yicha xizmat tekshiruvlari o'tkazilib, natijalariga ko'ra **34 nafar** (shundan, *1 nafari davlatga etkazilgan moddiy boyliklarni qoplash, 3 nafari ogohlantirish va 30 nafari O'zbekiston Respublikasi MKning 312-moddasi bo'yicha intizomiy jazoga tortildi*) xodimlarga nisbatan intizomiy ta'sir choralari ko'rildi.

Aniqlangan **5 ta** xolatlar yuzasidan protsessual tartibda tegishli choralar ko'rish maqsadida to'plangan xujjatlar Ichki ishlar, Bosh prokuratura va Davlat xavfsizlik xizmatiga yuborildi.

Xodim o'zi mehnat (*xizmat*) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilotning nazoratida bo'lgan tadbirkorlik faoliyati sub'ektining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (*ustav kapitalidagi*) ulushlariga egalik qilgan, shuningdek, ushbu tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining boshqaruv organi a'zosi bo'lgan **27 ta** (*shundan, O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi 1 ta, "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" DM 1 ta, "O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish nazorat inspeksiyasi" 1 ta, "O'zbekiston standartlar instituti" DM 1 ta, "O'zbekiston milliy metrologiya instituti" DM 6 ta va O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" DM 17 ta*) holat aniqlanib, bartaraf etildildi.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish  
va komplaens nazorati  
bo'lim boshlig'i**



**K. Raximov**